



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



UDK: 657.37: 657.1

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.29>

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Jo'rayev Og'abek Sherali o'g'li

Samadova Marjona Feruzbek qizi

ОСОБЕННОСТИ И ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ДОХОДОВ И РАСХОДОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Эгамбердиева Салима Раимовна

Жураев Огабек Шерали угли

Самадова Марджона Ферузбек кизи

PECULIARITIES AND SIGNIFICANCE OF ORGANIZING INCOME AND EXPENSE ACCOUNTING BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Jo'rayev Og'abek Sherali o'g'li

Samadova Marjona Feruzbek qizi

Received: January 2, 2026 Revised: January 6, 2026 Accepted: January 11, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada daromadlar va xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida moliyaviy ko'rsatkichdan samarali foydalanish tadbirkorlik subektlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Daromadlar va xarajatlarning moliyaviy natijasi qo'shma biznes boshqaruvi, shuningdek kreditorlar uchun investorlar, hamkorlar jalb etish uchun muhim mezon hisoblanadi.

Tayanch iboralar: xarajatlar daromadlar biznes-sheriklar Mahsulot (ish, xizmatlar tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, daromad solig'i bo'yicha xarajatlar, mahsulot (ish, xizmatlar ko'rsatish) sotishdan daromad, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.

Аннотация. В данной статье представлены предложения и рекомендации по основным направлениям совершенствования учета и контроля доходов и расходов. В контексте формирования цифровой экономики эффективное использование финансовых показателей имеет большое значение в деятельности хозяйствующих субъектов. Финансовый результат доходов и расходов является важным критерием для совместного управления бизнесом, а также для привлечения инвесторов и партнеров кредиторами.

Ключевые слова: расходы, доход, деловые партнеры, себестоимость товаров (работ, услуг), периодические издержки, расходы на финансовую деятельность, расходы на подоходный налог, доход от продажи товаров (работ, услуг), прочие доходы от основной деятельности.

Abstract: This article presents proposals and recommendations on key areas for improving the accounting and control of income and expenses. In the context of the formation of the digital economy, the effective use of financial indicators is of great importance in the activities of economic entities. The financial result of income and expenses is an important criterion for joint business management, as well as for attracting investors and partners to creditors.

Key words: expenses, income, business partners, cost of goods (works, services), periodic costs, expenses on financial activities, expenses on income tax, income from the sale of goods (works, services), other income from core activities.

■ KIRISH

O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimining to'laonli faol a'zosiga aylanib borgani sayin, xalqaro hisob tizimi mamlakatdagi buxgalteriya hisobining rivojlanishiga o'z ta'siri ko'rsatmoqda. O'z navbatida mamlakatimiz

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

amaliyotidagi buxgalteriya hisobi ham milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro standartlar asosida takomillashib bormoqda. Boshqa sohalar qatorida hisob tizimidagi turlicha yangi-yangi g'oyalar, atamalar va qarashlarning,



xususan ishlab chiqarish hisobi to'g'risidagi turlicha qarashlar yuzaga kelishi buxgalteriya hisobi tizimidagi islohotlarni yanada kengroq doirada davom ettirishni talab etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichida moliyaviy natijalarni aniqlashda olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxida sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyat darajasida kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, Moliyaviy hisobi xalqaro standarti asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobni xalqaro standarti asosida tayyorlashi belgilab qo'yildi [2].

Mahsulotlar xalqaro bozorga kirib borishi uchun aksionerlar, investorlar maxsulot tannarxi, ularning bozor narxlari va moliyaviy natijalar to'g'risida atroflicha malumotga ega bo'lishi zarur.

Pandemiya sharoitida xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining asosiy maqsadi ijobiy moliyaviy natijaga erishish, ya'ni maksimal darajada foyda olishdir. Shu holat kompaniyalarda moliyaviy natijalar hisobi to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlarni olish va muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi. Bu shundan dalolat beradiki, xalqaro bozorga chiqish xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalar hisobi xususiyatlarini aniqlash, ularda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashni taqozo etadi. Shuning uchun ayni paytda butun dunyoda daromadlar va xarajatlar hamda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Vaholanki, jahonning ko'pgina davlatlari fond birjalarida aksiyalari joylashtirilgan kompaniyalardan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishni talab etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subektlarning daromadlar va xarajatlar hamda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashtirish jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Daromadlar va xarajatlar va moliyaviy natijalarni hisobga olish va nazorat qilish va uni takomillashtirish bo'yicha ko'pgina chet el va O'zbekiston olimlari o'z fikrlarini bildirishgan. Masalan, Rossiyalik olim A.V.Smetankoning ilmiy tadqiqotlarida daromad va xarajatlarni hisobga olish, shuningdek, moliyaviy natijalarni shakllantirish mexanizmi tashkilot va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini tahlil

qilish uchun axborot manbai bo'lganligi sababli moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish zarur. [5].

Rossiyalik olim L.V. Donsovaning fikriga ko'ra: buxgalteriya hisobida foyda olishning tuzilishi va tartibi eng muhim masalalardan biri hisoblanishi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli hisobot va foydadan foydalanish korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uni mustahkamlash yoki qiyin moliyaviy vaziyatdan chiqish chora-tadbirlarini belgilab olish muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan [6].

A.V.Smetanko, A.S.Kovalenko, I.S.Sharapova, YE.S.Sorokina, N.V.Burdyuglarning ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy natijalarni hisobga olish, moliyaviy hisobning yakuniy bosqichi hisoblanadi deb o'z fikrlarini yoritib berdilar. Shuning uchun uni takomillashtirish buxgalteriya hisobini oldingi bosqichlarda ratsionalashtirish lozimligi va bunday sharoitda buxgalteriya hisobi va marketingni uyg'unlashtirishga asoslangan strategik hisob tizimiga erishish ma'lum bir davr uchun tashkilotning faoliyati natijasida deb tushunish kerak degan xulosaga keldi [8].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ish jarayonida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari – experimental tadqiqot, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, istiqbolli prognozlash, iqtisodiy tahlil, buxgalteriya hisobi va boshqa usullardan foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi ham MHXS lariga bosqichma-bosqich o'tmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida "Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish" vazifasi ham xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni dolzarb masalalar qatoriga ko'tarmoqda. [3]


10.11.2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida" Buyrug'i tasdiqlandi.[1]

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bitta xo'jalik yurituvchi subektning odatdagi faoliyati natijasida paydo bo'ladigan moddalar boshqa subektga nisbatan favqulodda bo'ladigan moddalar bo'lishi mumkin. Daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo'jalik yurituvchi subektning ishlari natijalarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo'limlar har xil moddalarni o'z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot



soliqqa tortilguncha va undan keyingi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan daromadni ko'rsatadi. Xususi kapital egalari ulushlari daromad hisoblanmaydi; xususi kapitalning egalari o'rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi. "Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo'lgan talablar amal qiladi. Nimaga deganda, sarmoyadorlar kompaniya uchun kapital ta'minotchisi hisoblanadi, ularning ehtiyojini qondiradigan axborotlarni ta'min etish


moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilarning ham ko'pchilik ehtiyojlarini qondira oladi". Kompaniya rahbariyati har bir qo'llaniladigan BHXS va izohlari bo'yicha Doimiy Qo'mitaning izohlash talablariga to'liq muvofiq holda hisob siyosatini ishlab chiqishi kerak. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chikarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan xo'jalik subektlari quyidagi faoliyatdan daromad oladi (1-rasm).



1-rasm. Daromadlar turlari¹.

Daromadlar deb xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisobot davrida faoliyatini yuritish mobaynida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarining kamayishidir. Xarajatlari deb korxona aktivlari miqdorining kamayishiga olib keluvchi majburiyatlar vujudga kelishi yoki aktivlar sarflanishi natijasida iqtisodiy manbaning kamayishiga aytiladi. Ular, odatda, faoliyat muntazamligini ta'minlash va daromad olish uchun sarflanadi. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab

chikarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi. Xarajatlarni hisobga olishning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular qaysi maksad uchun (aytaylik, daromad olish) va amalga oshirish shaklidan (pulli, moddiy) qat'iy nazar hisobda tan olinishi zarur.



Manba: 21-BXMS asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Har bir xo'jalik yurituvchi subekt ishlab chiqarish hisobotida o'z faoliyatiga xos bo'lgan ko'rsatkichlarni to'ldirib boradi. Moliyaviy hisobot har yili bir martadan

kam bo'lmagan tartibda taqdim qilinishi shart. 3-rasmga keltirilgan elementlarga xalqaro standartda keltirilgan tavsiflarini keltiramiz:

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi
<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

**3-rasm. Moliyaviy hisobot elementlari**

Daromadlar va xarajatlar va moliyaviy natijalar hisobi va hisoboti amaliyotida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) muhim ahamiyat kasb etadi.

Investorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar (masalan, davlat organlari, kasaba uyushmalari, biznes-sheriklar va h.k.) o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotdan manfaatdor bo'ladi. Bu manfaat esa ularning iqtisodiy, investitsion va huquqiy qaror chiqarishlari zaruratidan kelib chiqadi. Misol uchun, ular aksiyador kiritgan mablag'lari qanchalik foyda keltirishi, biznes mulki qanchalik o'sgani, qarzdorlik holati qanday ahvoldaligi kabi savollar bilan qiziqishlari tabiiy. Undan tashqari, salohiyatli investor biror biznesga mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqidagi qarorini yaxshilab baholashga urinadi, bunda u tashkilotni ish yuritayotgan tarmoqdagi boshqa shirkatlar bilan solishtirib ko'rishiga to'g'ri keladi. Buning uchun mazkur tashkilotning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holati va o'tgan davr faoliyati natijalari haqidagi raqamli va tushuntirish matnlaridan iborat hisobotga zarurat tug'iladi.

Ayniqsa qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar mahsulotlarining har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritishlari talab etiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qayta ishlovchi korxonalar bozor va iste'molchilar talablaridan kelib chiqib, xom ashyolarni qayta ishlashlari va shu asosda mahsulotlar assortimentini yaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, amaliyotda, aksariyat, korxona boshqaruvi va buxgalteriya bo'limi mutaxassislari xarajatlarni tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, xarajatlarni alohida moddalariga ajratish shart emas deb hisoblaydilar.

Bizningcha esa, umuman olganda, ushbu holat korxona hisob siyosatiga zid bo'lmasada, lekin ushbu mulohazalar to'g'ri emas, chunki qayta ishlovchi korxonalar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari shakllantirilishiga bo'lgan ehtiyoj ortib boraveradi. Korxona buxgalteriya hisobida daromadlar va xarajatlar hamda moliyaviy natijalarni aniqlashda xarajatlar moddalari bo'yicha ma'lumotlar muhimligi ortadi, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa, xarajatlar to'g'risidagi axborotlar bazasi aniqligi,

to'liqligi va tezkorligi, ular bo'yicha taxliliy natijalar, unumsiz xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash ahamiyati ortib boradi.

Bizningcha xarajatlarni alohida moddalariga ajratilgan holda hisobot shakllarida ham aks ettirish maqsadga muvofiq. Chunki har bir tarmoqning mahsulotini rentabelligi va boshqa samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda va moliyaviy hisobot ma'lumotlari umumlashgan ma'lumot bo'lganligi sababli ko'zlangan maqsad uchun etarli ma'lumotni bera olmaydi. Shuning uchun korxonalarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko'rsatish maqsadida yangicha xalqaro standartlar talabiga javob beradigan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni blankalari ishlab chiqilib joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotni korxona boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin. Bu esa ularga aniq ma'lumotlarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o'tashi mumkin.

Ma'lumki, rentabellik korxonalar faoliyatini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini umuman ifodalashi lozim.

Shunday qilib, umuman moliyaviy tahlilga o'xshab, rentabellik darajasini o'lchashda ham umumiy qabul qilingan uslub, ko'rsatkichlar tuzilmasi hali shakllanmagan. Shuning uchun, amaliyotda korxonalar tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, xarajatlar moddalarini tasniflash va shunga muvofiq hisobini yuritish maqsadga muvofiqdir va bu esa, korxonada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga va xarajatlarni eng maqbul variantlarda boshqarishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida daromadlar va xarajatlar hamda moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari nazariy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida keltirilgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning Konsepsiyasida moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga sarmoyadorlar, xodimlar, qarz beruvchilar, ta'minotchilar va boshqa savdo kreditorlari,



xaridorlar, hukumat organlar, jamoatni kiritgan holda, ularning axborot ehtiyojlarini qondirish masalasini quyidagicha tavsiflaydi: “Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo‘lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo‘lgan talablar amal qiladi.

2. Moliyaviy hisobotlarda moddalarni taqdim qilinishi va ularning tasnifi bir davrdan ikkinchi davrda saqlanishi lozim (taqdim qilishning ketmaketligi). Korxona moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishda usullarga o‘zgartirish kiritishi kerak bo‘ladi, agarda o‘zgargan tarkib ehtimol to‘liq saqlanilsa yoki muqobil ko‘rinishda taqdim qilishdan olinadigan naf muqarrar bo‘lishi ko‘rib chiqildi.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subektlarda foydani oshirishning yangi imkoniyatlarini topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, moliyaviy natijalarni shakllantirishning konseptual jihatlarini takomillashtirishni talab etadi.

5. Korxonalarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko‘rsatish maqsadida yangicha xalqaro standartlar talabiga javob beradigan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”ni blankalari ishlab chiqilib joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotni korxona boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin. Bu esa ularga aniq ma‘lumotlarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o‘tashi mumkin.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Egamberdiyeva Salima Rayimovna QDTU “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti / Эгамбердиева Салима Раимовна Доцент кафедры «Бухгалтерский учет и аудит» Каршинского государственного технического университета / Egamberdiyeva Salima Rayimovna Associate Professor of the Department of Accounting and Audit Karshi State Technical University salimaegamberdiyeva147@gmail.com 0009-0000-5106-7166

2. Jo‘rayev Og‘abek Sherali o‘g‘li, QDTU Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi bo‘yicha Magistranti / Жураев Огабек Шерали угли Магистрант по специальности «Бухгалтерский учет» Каршинского государственного технического университета / Jo‘rayev Og‘abek Sherali o‘g‘li Master’s student in Accounting Karshi State Technical University ogabekjurayev428@gmail.com

0009 - 0007- 7662-1507

3. Samadova Marjona Feruzbek qizi QDTU Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 2-bosqich talabasi / Самадова Марджона Ферузбек кизи Студентка 2 курса направления «Бухгалтерский учет и аудит» Каршинского государственного технического университета / Samadova Marjona Feruzbek qizi 2nd-year student of the Accounting and Audit program Karshi State Technical University marjonasamadova824@gmail.com 0009- 0004 -7888 -5774

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 10.11.2022-y. 61-son "O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida"gi Buyrug‘i (AV tomonidan 09.12.2022-y. 3400-son bilan ro‘yxatga olingan). Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz) 2022-yil 13-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha – chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 24.02.2020 PQ-4611 Qarori.

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi. 2017. strategy.regulation. gov.uz.

3.O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos to‘g‘risida”gi 14.08.1998 PQ-475 Qarori.)

5. Сметанко А. В. Актуальные вопросы аудита бухгалтерской отчетности в Российской Федерации / А. В. Сметанко, Ю. В. Михальчук // Научный альманах. — 2016. — № 10–1 (24). — С. 233–236.

6. Донцова, Л.В. Анализ финансовой отчетности: учебное пособие. – 2-е изд. / Л.В. Донцова. – М.: Издательство «Дело и Сервис», 2004. – 336 с.

7. Сметанко А. В. Проблемы бухгалтерского учета при переходе на международные стандарты финансовой отчетности / А. В. Сметанко, С. В. Власов, Д. С. Москалюк // Научный альманах. — 2016. — № 9–1 (23). — С. 35–39.

8. Внутрішній аудит [текст]: навч. посібник / О. В. Сметанко, І. С. Шарапова, Г. С. Коваленко, Н. В. Бурдюг, В. О. Горбачёв, О. С. Сорокіна; за ред. О. В. Сметанко. — Сімферополь.: ІП «Куртбедінова Д. А.», 2014. — 49



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz